


BuxDU Tarix fakulteti Tarix  
5A-120302 (yo'nalishlar va  
mintaqalar bo'yicha) 2-bosqich  
magistri Zaripov Jahongirning  
“FRANSIYA-O'ZBEKISTON  
MUNOSABATLARI (1991-  
2014) MAVZUSI

*Taqdimoti*

# REJA:

- Kirish
- I.BOB. Fransiya va O'zbekiston hamkorlik aloqalarining tarixiy ildizlari.  
1.1.Amir Temur va temuriylar davrida Fransiya bilan hamkorlik tarixidan 1.2. Fransiyada Temurshunoslik va uning natijalari
- II.BOB. Fransiya va mustaqil O'zbekiston Respublikasining o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik chorrahalarida
- 2.1.Fransiya – O'zbekiston iqtisodiy hamkorligining yutuqlari va tarixiy tajribasi
- 2.2.Ilmiy-texnikaviy sohadagi aloqalar
- 2.3. Madaniy hamkorlik aloqalari III.BOB. O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga qo'shilishi va Fransiya3.1. Mustaqil O'zbekistonning BMTga qabul qilinishi va jahon hamjamiyatidagi o'ziga xos o'rni3.2. O'zbekiston Respublikasining Evropa mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalari
- Xulosa
- Foydalilanigan adabiyot va manbalar ro'yxati



Prezidentimiz I. Karimov 2005-yil 28-yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida so'zlagan nutqida shunday davlatlar sifatida AQSH, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Fransiya, Yevropa Ittifoqining boshqa davlatlari, Koreya Respublikasi, Hindiston hamda Janubiy va Janubiy-G'arbiy Osiyorning davlatlarini sanab o'tdi. Ana shu mamlakatlar ichida G'arbiy Yevropadagi rivojlangan davlatlardan biri Fransiya bilan o'rnatilgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar ayniqsa diqqatga sazovordir.



# Tadqiqot mavzusining dolzarbligi:

- Mustaqillikning dastlabki kunlaridan oq, O‘zbekiston hukumati o‘z milliy manfaatlariga mos tashqi siyosat yo‘lini belgilash, jahon hamjamiyatiga qo‘shilish va xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, texnikaviy, madaniy aloqalar o‘rnatishga eng dolzarb vazifalardan biri deb qaradi.



# Magistirlik dessertatsiyasining nazariy va amaliy ahamiyati:

- - O'zbekistonning strategik imkoniyatlari, jahon miqyosida tutgan o'rnni mustahkamlash omillari;
- - Rivojlangan mamlakatlar bilan xususan, Fransiya bilan do'stlik, sheriklik, teng hamkorlik, siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarni rivojlantirish omillarini o'rganildi;
- Fransiyadagi tarixshunoslarning "Amir Temur" tarixinining o'rganilishiga e'tibor qaratildi

■ O'zbekistonning Yevropadagi eng muhim sheriklaridan biri Fransiya mamlakati hisoblanadi. O'zbekistonning tashqi siyosatidagi strategik kursi va asosiy tamoyillari xalqaro munosabatlar me'yorlariga muvofiqligi Respublikamiz siyosiy mustaqilligining va dunyo hamjamiyatida davlatlararo munosabatlarga kirishuvining asosi bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston va Franiya o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishida har ikki tomonning o'zaro manfaatli hamkorlikdan manfaatdorligi asos bo'lib xizmat qildi. Shu maqsadlar bilan 1992 yil 3 yanvarida Fransiya O'zbekiston mustaqilligini rasmiy ravishda tan oldi. Shu yilning 1 martida esa har ikki mamlakat o'rtasida diplomatik aloqa o'rnatildi.

- O‘zbekiston bilan Fransiya o‘rtasida diplomatik munosabatlari o‘rnatilganidan keyin o‘tgan davrda Toshkent va Parijda uch marta O‘zbekiston - Fransiya sammitlari bo‘lib o‘tdi. Ikki mamlakat rahbarlari xalqaro tashkilotlarning sammitlari doirasida ham bir necha bor uchrashgan.
- O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasida parlamentlar, tashqi siyosat, tashqi savdo, mudofaa mahkamalari, qator boshqa vazirlik va idoralar delegatsiyalarining muntazam tashriflari yo‘lga qo‘yilgan. Fransiya Senatida “Fransiya-Markaziy Osiyo”, Fransiya Milliy yig‘inida esa “Fransiya - O‘zbekiston” deputat guruhlari faoliyat ko‘rsatadi.

# O'zbekiston Fransiya bilan munosabatlarga kirishar ekan bir necha strategik maqsadlarni ko'zлади:

- ▶ Davlatlararo munosabatlarni mustahkamlash va har ikki mamlakat xalqlarini siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik madaniy sohalarda o'zaro manfaatdor hamkorlik orqali yaqinlashtirish;
- ▶ - Fransyaning ilg'or texnologiyalarini kichik va o'rta tadbirkorlikni va sanoatini qayta qurishi uchun keng jalb etish;
- ▶ - O'zbekistonning o'zak sanoat tarmoqlariga Fransiya investitsiyalarini jalb etish;
- ▶ - Fransyaning Yevropadagi ta'siridan mukammal foydalangan holda O'zbekiston Yevropa Ittifoqining boshqa mamlakatlari bilan sherikchilik, hamkorlik munosabatlarini o'rnatish.

# **Fransiya va O`zbekiston o`rtasida imzolangan ikki tomonlama shartnoma va bitimlar ro`yxati**

- 29.02.1992. Fransiya Respublikasi va O`zbekiston Respublikasi o`rtasida diplomatik munosabatlar o`rnatish to`g`risida Bayonnomma
- 27.10.1993. Fransiya Respublikasi va O`zbekiston Respublikasi o`rtasida do`stlik va hamkorlik to`g`risida Shartnoma
- 27.10.1993. Fransiya Respublikasi Hukumati va O`zbekiston Respublikasi Hukumati o`rtasida sarmoyalarni o`zaro rag`batlantirish va himoyalash to`g`risida Bitim
- 26.04.1994. Fransiya Respublikasi Hukumati va O`zbekiston Respublikasi Hukumati o`rtasida harakat erkinligi to`g`risida Bitim
- 26.04.1994. Fransiya Respublikasi Hukumati va O`zbekiston Respublikasi Hukumati o`rtasida Tashqi ishlar vazirliklari o`rtasidagi hamkorlikka oid Bitim
- 22.04.1996. Fransiya Respublikasi Hukumati va O`zbekiston Respublikasi Hukumati o`rtasida ikki yoqlama soliqqa tortishning oldini olish hamda daromad va boylik soliqlarini to`lashdan bosh tortishni bartaraf etish to`g`risida Konvensiya va boshqa bir qator bitimlar



Abdulaziz Kamilov Fransiya  
rivojlanish agentligining ijrochi  
direktori Jan-Mark Gravellini bilan

# O`zbekiston davlat arboblarining Fransiyaga tashriflari

---

- Oktabr 1993-yil: Prezident Islom Karimov Parijda
- Aprel 1996-yil: Prezident Islom Karimov Parijda (UNESCO da O`zbekiston xaftaligi)
- Aprel 1998-yil: Komilov, Tashqi ishlar vaziri
- Dekabr 1998-yil: Tursunov, Mudofaa vaziri
- Iyun 2000-yil: Sultonov, Bosh vazir ("O`zbekistonda savdo qilmoq va investitsiyalar kiritmoq" mavzusiga bag`ishlangan Senat-CFCE kollokviumi)
- Yanvar 2001-yil: G`ulomov, Mudofaa vaziri
- May 2003-yil: Parpiyev, Bojxona qo`mitasi raisi
- Yanvar 2004-yil: Ganiyev, Bosh vazir o`rinbosari, Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi raisi
- Mart 2006-yil: Mustafoev, Tashqi ishlar vaziri o`rinbosari (Fransiya-O`zbekiston siyosiy maslahatlashuvlar)
- Mart 2007-yil: Ganiyev, Bosh vazir o`rinbosari, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vaziri

# Fransiya davlat arboblarining O`zbekistonga tashriflari

- Mart 1992-yil: Viv'yen, Tashqi ishlar bo`yicha davlat kotibi
- Aprel 1994-yil: Prezident Fransua Mitteran
- Sentabr 1996-yil: Janob P'er Joks, Mudofaa vaziri
- Aprel 1996-yil: "Fransiya-Markaziy Osiyo" do`stlik guruhi senatorlar delegatsiyasi
- Iyun 1999-yil: P'yerre, sanoat bo`yicha davlat kotibi
- 8-9 iyul 2000-yil: Rishar, Mudofaa vaziri
- 2-6 oktabr 2000-yil: Senator Tryusi boshchiligidagi "Fransiya-Markaziy Osiyo" do`stlik guruhi senatorlar delegatsiyasi
- Aprel 2001-yil: de Vil'pen, senator, Tashqi ishlar, mudofaa va harbiy havo kuchlari bo`yicha Komissiya Raisi va senatorlar delegatsiyasi
- Noyabr 2001-yil: Joslen, Hamkorlik va Frankofoniya vaziri
- May 2003-yil: Loos, Tashqi savdo vakil-vaziri
- Iyun 2003-yil: Allio-Mari, Mudofaa vaziri
- Oktabr 2003-yil: Sharas va Janob For, senatorlar
- Iyun 2009-yil: P'yer Lellush, Afg`oniston va Pokiston bo`yicha maxsus vakil
- 2014 - yil 4-mart kuni Fransiya elchisi Jak-Anri O'ls O'zbekiston Respublikasi

# O`zbekistonning Fransiyada Elchilar:

- Ravshan Usmonov (2012y.-)
- Baxromjon A'loyev (2009-2012yy.)
- Ravshan Alimov (2006-2009yy.)
- Xamidulla Karamatov (2003-2006yy.)
- Tohir Mamajonov (1197-2003yy.)
- Akmal Saidov (1994-1996yy.)

# Fransiyaning O`zbekiston dagi elchilar:

- ◆ Jak-Anri O`ls (2013y.-)
- ◆ Fransua Got'ye (2010-2013yy.)
- ◆ Xyug Perne (2007-2010yy.)
- ◆ Jan-Bernar Art (2004-2007yy.)
- ◆ Jak-Andre Kostiy (2000-2004yy.)
- ◆ Jan-Klod Rishar (1995-2000yy.)
- ◆ Jan-Pol' Vezian (1992-1995yy.)



**Fransiya elchisi Jak-Anri O`Is  
Fransiya va O`zbekiston o`rtasida  
yuridik hamkorlikni muhokama qilish  
maqsadida O`zbekiston Respublikasi  
Adliya vaziri Nig`matilla Yo`ldoshev  
bilan uchrashuv (2014-yil)**

# Savdo munosabatlari

- Iqtisodiy sohada o'zbek-fransuz hamkorligi O'zbekistonning mustaqillikka erishgan dastlabki yillaridanoq boshlangan. O'rtada tuzilgan davlatlararo bitim va shartnomalar bu ishda huquqiy zamin vazifasini o'tadi. O'zbekiston rahbariyati xalq ho'jaligini strategik isloh qilish yo'lidan kelib chiqib, Fransiya bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarga yetakchi o'rinn berdi. Jumladan ikki davlat o'rtasidagi savdo aylanmasi hajmi 1994 yilda 12,4 mln AQSH dollari, 1995 yilda 16,1 mln, 1996 yilda 92,7 mln, 1997 yilda 151,3 mln, 1998 yilda 172,8 mln AQSH dollarni tashkil etdi. Fransiya O'zbekiston bilan tovar aylanish bo'yicha Angliya, Germaniya, Belgiyadan keyin 4-o'rinda turdi

# O'zbekistonning Fransiyaga eksporti

- O'zbekiston tashqi savdosida Fransiyaga paxta ipi kalavalarini sotish, noorganik kimyo mahsulotlari, turli xizmat turlari eksporti yetakchi o'rincutib kelmoqda. Fransiya tovarlari importi samolet, oziq-ovqat mahsulotlari, uskunalar, qora metall, va undan mahsulotlar, elektr jihozlari, transport vositalari, kimyo maxsulotlari, mebel, organik kimyo birikmalari, toshdan yasalgan buyumlar, gips-ganch mahsulotlari, hizmatlar, farmatsyevtika mahsulotlaridan iborat.

# Madaniy hamkorlik

- O'zbekiston va Fransiya madaniyat va sport sohalaridagi hamkorliklar ham rivojlanib bormoqda. 2011-yilning 28-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligida vazir T.Qo'ziev bilan Fransiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Fransua Gotye o'rtasida belgilangan rejaga muvofiq uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik masalalari bo'yicha maslahatchi Frederik Bellido hamda O'zbekiston Respublikasi Xalqaro aloqalarni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i A.Maqsudov ishtirok etdilar.